

XALQ BAXSHICHILIGI VA DOSTONCHILIK AN'ANALARINI ETNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'RGANISH

Abdullayeva Zaytuna Shamilevna

Termiz davlat universiteti "Musiq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi,

"Jayhun" folklor-etnografik xalq ansambli badiiy rahbari

e-mail: abdullaevazaytuna@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0002-8668-008X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi beqiyos xazina bo'lib, shu asosda xalqimizni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, mardlik, jasurlik hamda sevgi vafoga sadoqat ruhida qarash, tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Yangi O'zbekiston amal qilayotgan Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilingan davlat dasturida xalqimizni bugun va ertangi kunga ishonch ruhini to'liq shakllantirish uchun ajdod-avlodlarimiz tomonidan asos solingan odob-axloq, kamtarinlik, saxiylik, saxovat, oila birdamligi, sofdillik, mehr-muruvvat, qo'shnilariga hurmat, ibrat va komillikka yetish uchun asrlar osha amalga oshirilib kelinayotgan an'analarga, qadriyatlarga, marosimlarga sodiq bo'lish masalasini o'ziga mujassam etgan xalq og'zaki ijodini tiklash, sayqallashtirish, bugungi ruhini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berish zarurligi o'z aksini topayotganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Murodxon", "Misqol pari", "Hasanxon", "Avazxon", "Ravshan", "Intizor", "Erali", "Oysuluv".

Аннотация: В данной статье анализируется необходимость восстановления, совершенствования и дальнейшего улучшения современного духа узбекского народного устного искусства, воплощающего многовековые традиции, ценности и ритуалы, практикуемые на протяжении веков, с целью всестороннего формирования духа уверенности в нашем народе сегодня и завтра, в рамках государственной программы, принятой на основе Стратегии действий Нового Узбекистана.

Ключевые слова: эпическая поэма

Алишера Навои «Сабъай сайёр», «Алпомиш», «Гёроғлы», «Кунтуғмиш», «Рустамхан», «Муродхан», «Мискол пари», «Хасанхан», «Авазхан», «Равшан», «Интизор», «Ералы», «Ойсулув».

Abstract: This article analyzes the need to restore, polish, and further improve the current spirit of Uzbek folk oral art, which embodies the centuries-old traditions, values, and rituals that have been practiced for centuries in order to fully form the spirit of confidence in our people today and tomorrow, in the state program adopted on the basis of the Strategy of Actions of New Uzbekistan.

Keywords: Alisher Navoi's epic poem "Sab'ai sayyor", "Alpomish", "Gorogli", "Kuntug'mish", "Rustamkhan", "Murodkhan", "Misqol pari", "Hasankhan", "Avazkhan", "Ravshan", "Intizor", "Erali", "Oysuluv".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Xalqimizning boy va betakror folklor merosi, xususan dostonlar xalqning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi hamda axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim badiiy manbalardan hisoblanadi. Ushbu asarlar insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etib, jamiyat a'zolarini adolatli, haqgo'y va vatanparvar bo'lishga undaydi. Shuningdek, dostonlar orqali yosh avlodga o'z yurtini, oilasini, do'stlarini, or-nomusini, shuningdek, ota-bobolar merosi va muqaddas qadamjolarni har qanday tajovuzdan himoya qilish g'oyalari singdiriladi.

O'zbek folklorshunosligida dostonchilik san'atining muhim jihatlari turli ilmiy tadqiqotlarda tahlil etilgan. Mazkur san'atning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari, ijrochilik texnikasi hamda badiiy-estetik xususiyatlari yuzasidan qator

ilmiy asarlarda qimmatli ilmiy xulosalar berilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati asosan Samarqand, Buxoro va Xorazm dostonchilik maktablari materiallari asosida olib borilgan bo'lib, qadimiy an'analarga ega bo'lgan Janubiy O'zbekiston hududidagi dostonchilik maktablari hamda baxshilar ijrochilik mahorati masalalari yetarli darajada yoritilmagan[1:54].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЖИТЕПАТЛАР И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mustaqillik yillarida esa milliy madaniy merosni qayta baholash jarayoni jadallashib, ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni yangi ilmiy mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish, shuningdek, avval mutlaqo o'rganilmagan yoki tadqiq etilishi turli sabablarga ko'ra cheklangan davrlar, mavzular, asarlar va ijodkorlar faoliyatini chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy muomalaga kiritish masalalari ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

O'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosini tashkil etuvchi baxshichilik va dostonchilik an'analari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini mazmunan to'ldiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu an'alar asrlar davomida xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi hamda ma'naviy qadriyatlari bilan boyib, milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Baxshi va doston tushunchalari etnomadaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning mazmun-mohiyati xalq og'zaki ijodining boy an'analari orqali avloddan-avlodga yetib kelmoqda.

Etnotoponimik va leksik manbalar tahliliga ko'ra, "baxshi" (baxsi, baqsi) so'zi turkiy kelib chiqishga ega bo'lib, lug'atlarda u murabbiy, muallim, tarbiyachi, yetakchi yoki yo'l boshchi kabi ma'nolarni anglatadi. Bu atama xalq orasida nafaqat doston ijrochisi, balki ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi, xalq donishmandligini targ'ib etuvchi shaxs sifatida ham talqin qilinadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutgan "doston" atamasi ham keng qamrovli tushunchani ifodalaydi. Dostonlar odatda nazm va nasr unsurlarining uyg'unligida yaratilgan yirik hajmli epik asarlar bo'lib, ularda qahramonlar silsilasi, voqealar tizimi va badiiy tasvirning o'zaro uyg'unligi muhim

ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining milliy iftixori hisoblangan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham epik an'ana va baxshiyona bayon uslubi muhim o'rin egallaydi. Navoiy o'z asarlarida so'z san'atining qudrati orqali jamiyatda ezgulik, adolat va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etishga intilgan. Uning asarlarida inson aql-idroki, odob-axloq, mehnat, burch va mas'uliyat kabi fazilatlar ulug'lanadi, shuningdek, jaholat, xiyonat va iymonsizlik kabi illatlarning barham topishi g'oyasi badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Navoiy o'z asarlari orqali insoniyatni ezgulikka, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Masalan, Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonining o'n birinchi bobida "Shoh Bahrom dostonig'a shuru' qilurdin burun bir necha so'zga murtakib bo'lmoq va ul dostonda tag'yir va tabdil voqe' bo'lg'onning uzrin qo'lmoq..." deb yoziladi. Bu yerda "Shoh Bahrom dostoni" iborasi aslida "Shoh Bahrom qissasi" ma'nosini anglatib, doston tushunchasi rivoyat va afsona mazmuni bilan ham uyg'unlashishini ko'rsatadi.

Shu jihatdan baxshi va doston, shuningdek baxshichilik va dostonchilik atamalari mazmun jihatidan o'zaro uyg'un bo'lib, xalqning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi. Baxshi – xalq hurmatiga sazovor ijodkor sifatida dostonlarni ijro etuvchi va targ'ib etuvchi shaxs bo'lsa, doston esa xalq qalbidan joy olgan epik asar sifatida milliy madaniyatimizda alohida ahamiyat kasb etadi[2:96].

O'zbek xalqining milliy og'zaki ijodi tizimida baxshichilik va dostonchilik an'analari xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular etnografik jarayonlar bilan uzviy aloqada rivojlangan. Baxshi ijodida qo'llaniladigan har bir badiiy obraz, ibora va tasvir vositalari xalqning urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq holda talqin etiladi. Shu bois baxshichilik san'ati nafaqat folklor hodisasi, balki xalqning etnomadaniy hayotini aks ettiruvchi muhim etnologik manba sifatida ham e'tirof etiladi.

Etnografik tadqiqotlar natijalari shuni

ko'rsatadiki, dostonchilik an'analari baxshilar uchun o'ziga xos sinov maktabi vazifasini bajargan. Baxshi bo'lish jarayoni nafaqat tabiiy iste'dod, balki uzoq yillik mashq va mashaqqatli mehnatni ham talab etgan. Baxshi ijrosining xalq tomonidan e'tirof etilishi uchun so'z san'ati va do'mbira ohangi o'zaro uyg'unlashib, bir-birini to'ldirishi muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli baxshi bo'lish istagida bo'lgan har bir kishi ham xalq tomonidan darhol tan olinmagan; aksincha, u o'z mahoratini sinovlardan o'tkazib, ijrochilik salohiyatini namoyon etishi lozim bo'lgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baxshilar ijro jarayonida o'ziga xos ruhiy va estetik holatni namoyon etganlar. Ular odatda sokinlik, kamgaplik va ichki diqqatni jamlash holatida bo'lib, butun e'tiborini do'mbira sadolari hamda so'zlarning ketma-ketligiga qaratganlar. Baxshi ijrochiligida kuy va so'z uyg'unligi muhim o'rin tutib, ohanglar ketma-ketligi mazmuniy jihatdan badiiy matn bilan bevosita bog'langan holda talqin etilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Baxshi ijro jarayoniga kirishganida atrofda voqelikdan go'yo uzilib, butun borlig'i bilan badiiy obrazlar olamiga sho'ng'igan. Uning ijodida adolat, shukronalik, diyonat, xolislik, kamtarlik, saxiylik, jasorat va shijoat kabi insoniy fazilatlar ulug'langan. Baxshi kuylagan dostonlar orqali insonlarni umidsizlikdan yiroq bo'lishga, aql va kuch birlashganda har qanday qiyinchilikni yengish mumkinligiga ishon tirgan. Shu tariqa baxshi san'ati xalq qalbida ruhiy dalda beruvchi, ojizlarga kuch bag'ishlovchi hamda insonlarda yashashga bo'lgan umidni mustahkamlovchi ma'naviy manba sifatida muhim o'rin egallagan.

Milliy xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi hisoblangan dostonlar, termalar va aytishuvlarni kuylab, ularni keng ommaga yetkazuvchi ijodkor shaxs baxshi deb ataladi. Biroq xalq an'analari baxshi turli hududlar va madaniy muhitlarga qarab turlicha nomlar bilan ham atalgan. Jumladan, xalq orasida baxshi shoir, sozchi, sozanda, soqi, sanovchi, yuzboshi, xalfa, jirov, jirchi, oqin, oxun kabi nomlar bilan ham tilga olingan. Bu atamalar baxshichilik san'atining turli shakllari va

ijrochilik an'analari bilan bog'liq bo'lib, ularning badiiy ijoddagi o'rni va vazifasini ifodalaydi[3:164].

Xalq orasida mashhur bo'lgan ayrim ijodkorlar esa o'zlarining iste'dodi va ijrochilik mahorati tufayli alohida nom bilan tilga olingan. Masalan, Jolmon baxshi, Jossoq shoir, Yo'ldosh shoir, Bibi shoir, Sherna yuzboshi, Xonimjon xalfa, Qurbon sozchi, Qodir sozchi, Haybat soqi kabi nomlar xalq xotirasida saqlanib qolgan. Bunday ijodkorlar el-yurtning sevimli kishilari bo'lib, ularga doimo katta e'zoz va hurmat ko'rsatilgan. Ularning ijrosi tufayli to'ylar, yig'inlar, sayillar va turli bazmlar yanada mazmunli va fayzli kechgan.

Baxshilar ijro etgan dostonlar orasida "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Murodxon", "Misqol pari", "Hasanxon", "Avazxon", "Ravshan", "Intizor", "Erali", "Oysuluv" kabi ko'plab epik asarlar xalq orasida keng tarqalgan va katta ehtirom bilan qabul qilingan. Mazkur dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti va ma'naviy dunyoqarashini o'zida mujassam etgan muhim folklor namunalari hisoblanadi. Shu bois dostonlarni xalqning tarixiy xotirasi, o'tmish voqealarining badiiy ifodasi hamda xalq orzu-umidlarining badiiy talqini sifatida baholash mumkin. Ular xalq tarixining qo'shig'i, taqdirining ohangi va kelajak haqidagi umidlarining badiiy ifodasidir[4:59].

Baxshilar esa ana shu boy tarixiy va ma'naviy merosning asosiy targ'ibotchilari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular xalq tarixining kuychisi, og'zaki an'analarning mohir ijrochisi hamda ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lovchi halqa sifatida namoyon bo'ladi. Baxshi ijodi orqali xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashi avloddan-avlodga og'zaki ravishda yetkazib kelingan.

Xususan, "Alpomish" dostoni turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va tarixiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'zbek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird hamda Oltoy xalqlari orasida keng tarqalganligi bu asarning umumturkiy madaniy meros sifatidagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Xuddi shuningdek, "Go'ro'g'li" turkum dostonlari

ham o'zining keng tarqalish hududi bilan ajralib turadi. Mazkur epik asarlar Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda Kavkaz mintaqasida yashovchi ozarbayjon, arman va gruzin xalqlari, shuningdek Turkiya va Eron hududlarida ham keng yoyilgan.

Baxshichilik san'ati ilk bor O'zbekistonning janubiy hududlarida shakllangan bo'lib, bu holat qadimiy Termiz tumanidagi Ayritom arxeologik yodgorligidagi oq frizdagi sozandalarning tasvirida o'z ifodasini topgan. Ushbu frizda ud, arfa va chiltor kabi musiqa cholg'ulari aks etgan bo'lib, bu baxshichilik san'atining qadimiyligini va ijrochilarning badiiy hamda ma'naviy qobiliyatlarini yaqqol ko'rsatadi. Shu tariqa, ushbu san'at asari nafaqat musiqaning ilk bosqichi sifatida qabul qilinadi, balki xalqning orzu-umidlari, hushyorligi, mehnatsevarligi, mardligi, jasurligi va sevgi-vafoga sodiqligini ham o'zida mujassam etgan.

Etnologik tadqiqotlar va dala kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, janubiy hududlardagi baxshichilik musiqa uslubi mazkur hududning etnik tarkibi, tarixi va turmush sharoitlari bilan bevosita bog'liq. Jumladan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida yashovchi o'zbek aholisining katta qismi azaldan yarim ko'chmanchi hayot kechirgan bo'lib, ushbu turmush tarzi baxshilar qo'shiqlarida o'z aksini topgan. Shu bois, ushbu hududda baxshilar ijrosidagi "sog'im qo'shiqlari" ("Xo'sh-xo'sh", "Turey-turey", "Churey-churey") keng qo'llanilib, hayvonlarni tinchlantirish, erkalash va boqish jarayonlarini yoritgan.

Bundan tashqari, dehqonchilik bilan bog'liq an'anaviy xo'jalik ishlariga oid baxshilar qo'shiqlari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, yer haydashda ("Qo'shchi qo'shig'i", "Shox moylash", "Qo'sh haydash"), hosilni o'rishda ("Yozi"), xirmonda bug'doy yoki arpani yanchishda ("Mayda"), bahor kelishini nishonlashda ("Navro'z") baxshilar ijrosi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga, qadriyatlar va marosimlar bilan bog'liq ijtimoiy-maishiy hayotga oid davra o'yin qo'shiqlari ("qarsak", "beshqarsak") janubiy hududlarda keng tarqalgan.

Janubiy hududlarda an'anaviy musiqa cholg'ulari ham o'ziga xosligi bilan ajralib

turadi. Ular asosan sibizg'a va g'ajir nay (cho'ponlar musiqasi), laparchi ayollar tomonidan ijro etiladigan chang qo'biz, shuningdek, baxshilarga jo'r bo'lgan do'mbira yoki qo'biz bilan cheklangan. Musiqaning bu uslubi boshqa hududlardan farq qilgan holda, janubiy O'zbekistonda baxshi-shoirilar va do'mbirakash baxshilar ijodida markaziy o'rin tutgan.

Janubiy hududlarda chorvachilik xo'jaligi hayotini aks ettiruvchi cho'ponlar musiqiy ijodi ham keng tarqalgan. Masalan, "Cho'poncha", "Qo'ylarni sudrash", "Qo'ylarni yig'ish" va "Cho'ponni chaqirish" kabi kuylar chorvachilik amaliyoti bilan bog'liq bo'lib, ular xalq og'zaki ijodining turmush va mehnat bilan bog'liq badiiy namunasini tashkil qiladi. Shu bilan birga, "Baxshi kuy"lar doston ijrosi bilan uyg'unlashib, janubiy hududlarda og'zaki ijodning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi[5:133].

Tarixiy-etnografik tadqiqotlarga qaraganda, dastlabki diniy tasavvurlar mifologiya bilan bog'liq bo'lib, xalq ijodining turli janrlarida, ayniqsa, afsona va rivoyatlarda, ertak va dostonlarda, hatto xalq o'yinlari va raqslarida saqlanib kelingan. Masalan, o'zbeklarda nishonlanadigan mavsumiy sayillarda, Navro'z, "Lola" va "Qizil gul" xalq bayramlarida ijro etiladigan kuy va raqslarda sehrargarlik va totemistik tasavvurlarning elementlari yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, Xorazmda o'tkaziladigan bayram sayillaridagi o'yin-kulgilar, yor-yorlar, qo'shiq aytishlar, kichik janrdagi xalq og'zaki dramalari, "chag'alloq" va "sulgin" o'yinlari va hatto mashhur "lazgi" raqsida totemistik va sehrargarlik tasavvurlari bilan bog'liq elementlari aniq seziladi. Ayniqsa, "chag'alloq" o'yini pantomimasida raqqosning baliqchiquishning baliq tutish paytidagi harakatlarini do'ppi yoki piyola atrofida bo'ynini cho'zgan holda ikki qo'lini qanot qilib, pipiratib, qushday ovoz chiqarib, harakat va imo-ishoralar bilan ifodalashi ibtidoiy-totemistik ruhdagi raqslarni eslatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Qadimgi turkiylarning diniy e'tiqodlari va ularning xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etishini tahlil etish jarayonida

quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Qadimgi turkiy xalqlar uzoq tarixiy o'tmishida ko'p diniy aqida va ta'limotlarga e'tiqod qo'ydilar. Shu sababli ham ularning islomgacha bo'lgan davrdagi diniy e'tiqodlarini faqat bir din ta'siri yoki qobig'ida tasavvur etib bo'lmaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, turkiy xalqlarning har bir diniy e'tiqodi hamda marosimlari ularning og'zaki, keyinchalik yozma adabiyotida ham o'z ifodasini topdi[6:175].

Surxon vohasida ajdodlarimizning urf-odatlarini o'zida saqlab kelayotgan turli millat vakillari istiqomat qiladilar. Vohada yashab kelayotgan turli millatlar yurt ravnaqi, taraqqiyoti uchun bir tanu bir jon bo'lib kurashib kelmoqdalar. Bir ariqdan suv ichib, bir dalada mol boqib, to'y-hashamlarda, xalq sayillarida, motam marosimlarida yelkama-yelka turib, o'zlarining qadimiy va ibratli urf-odatlarini saqlab kelmoqdalar.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Alpomish" dostonining 1000-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqi "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1999. 9-noyabr № 32.
2. Mirzayev T. O'zbek filologiyasi yangi bosqichida, O'zbek tili va adabiyoti. 2003.-№ 4.-B.31.
3. Drevnetyurkskiy slovar. – Leningrad: Nauka, 1969. – S. 82.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 10 –tom. Xamsa. Sab'ai sayyor. – Toshkent: Fan, 1992. –B.72.
5. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. –B. 227–232.
6. Tursunov S., Pardayev T., Mahmadiyorova N. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akademnashr, 2012. –B. 93.